

GINETSEY HAQIDA TUSHUNCHA , UNING TUZILISHI VA VAZIFASI
THE CONCEPT OF THE GENEALOGY, ITS STRUCTURE AND FUNCTION
ПОНИМАНИЕ ГИНЕЦЕИ, ЕГО СТРУКТУРЫ И ФУНКЦИЙ

Andijon davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar fakulteti talabalar:

Azimova Rayxona Omadjon qizi, Tóxtasinova Gulzoda Jo’rabek qizi

Annotatsiya: Ginetsey - gulning urg‘ochi jinsiy organlari yig‘indisi bo‘lib, meva va urug‘ shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Uning asosiy qismi pistil bo‘lib, urug‘don, sutuncha va chang qabul qiluvchidan tashkil topgan. Ginetseyning tuzilishi monokarpelliy va polikarpelliy turlarga bo‘linadi. Asosiy vazifalari urug‘chalarni shakllantirish, urug‘lanishni ta‘minlash, meva hosil qilish va o‘simlikning generativ ko‘payishini amalga oshirishdir.

Kalit so‘zlar: ginetsey, pistil, urug‘don, urug‘chalar, chang qabul qiluvchi, meva, urug‘lanish, generativ organ, monokarpelliy, polikarpelliy.

Abstract: Gynoecium is the set of female reproductive organs of a flower, which plays a key role in the formation of fruit and seeds. Its main part is the pistil, which consists of an ovary, a style and a pollen tube. The structure of the gynoecium is divided into monocarpel and polycarpel types. Its main functions are to form seeds, ensure fertilization, form fruits and carry out generative reproduction of the plant.

Keywords: gynoecium, pistil, ovary, seeds, pollen tube, fruit, fertilization, generative organ, monocarpel, polycarpel.

Аннотация: Гинецей - совокупность женских репродуктивных органов цветка, играющих основную роль в образовании плодов и семян. Основная его часть - пестик, состоящий из семени, столбика и пыльника. По строению гинецей делится на монокарпеллиальный и поликарпеллиальный типы. Основными задачами являются образование семян, оплодотворение, формирование плодов и генеративное размножение растения.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 12. December 2024

Ключевые слова: гинецей, пестик, семязачаток, семена, опылитель, плод, оплодотворение, генеративный орган, монокарпелли, многоплодники.

Ginetsey (yun. gyne - ayol, oikion - uy, boshpana) - gulning reproduktiv qismi, hamma mevakbargchalar yig'indisi. Bir-biri bilan qo'shilmagan, erkin joylashgan, har biri alohida urug'chi hosil qiladigan mevakbargchalardan iborat. Ginetsey apokarp Ginetsey deb ataladi. Apokarpli Ginetsey eng sodda bo'lib, magnoliya, pion va ayiqtovonlar uchun xos. Ba'zan Ginetsey bitta mevakbargcha (urug'chi)dan iborat (mas, burchoqdoshlarda). Evolyutsiya davomida mevakbargchalar qo'shib ketib, 3 xil tipdagi senokarp Ginetsey hosil bo'ladi. Yon tomonlari bilan o'zaro qo'shib o'sgan yopiq mevakbargchalar (ularning urug' kurtagi choklari bo'ylab, ya'ni uyachalar burchagida joylashgan) sinkarp Ginetsey hosil qiladi (lola). Sinkarp Ginetseydan ayrim mevakbargchalarning ajralib chiqishi, biroq ular qirralarining ajralib ketmasligi tufayli parakarp Ginetsey hosil bo'ladi (bodring, qovoq, lolaqizg'aldoq). Parakarp Ginetsey bir uyali bo'lishi va urug'kurtaklari Ginetsey devorida joylashganligi bilan sinkarp ginetseydan farq qiladi. Boshqa hollarda parakarp ginetsey bevosita apokarp ginetseydan kelib chiqqan. Sinkarp ginetsey tugunchasi to'siqlarining yo'qolib ketishi natijasida bir uyali lizikarp ginetsey vujudga kelgan. O'zaro qo'shib ketgan bir necha mevakbargchalardan hosil bo'lgan ginetsey murakkab urug'chi deyiladi.

Ginetseyning umumiy fa'rift: Ginetsey guldagi urug'chibarglar yig'indisi bo'lib, ular bitt a yoki bir nechta urug'chilarni tashkil etadi. Urug'chilarning pastki shish tomoni - tugun, uning ichida urug'kurtaklar shakllanadi. Gulning ustida ustuncha (apokarp urug'chida - stilodiy), ustunchaning uchi tumshuqcha deyiladi. Tumshuqcha changni qabul qilish, ustuncha tumshuqchani yuqoriga olib chiqish vazifasini bajaradi. Urug'chilarning morfologiyasi o'ta xilma-xil bo'lib, u ma'lum darajada taraqqiy etganligi yoki primitivligi hamda sistematik va moslanish belgilariga ham ega. Taraqqiy etganligi, eng avvalo, ginetseyda uyalar hosil bo'lish hodisasi va ustki yoki pastki tugunlar mavjudligidan iborat. Oxirgisi esa changlanish xususiyatlariga bog'liq. Primitiv oilalarga (ko'pchilik ayiqtovondoshlar, magnoliyadoshlar, ko'knor ustunchaning bo'lmasligi xos. Ustunchalar ko'pchilik shamol bilan changlanadigan o'simliklarda ham taraqqiy etmagan, masalan, g'alladoshlarda. Aksincha, boshqa gullilar (liliyalar)da bularning ham shamol bilan changlanishiga qaramay, ustunchalari birmuncha uzunlikka ega. Yirik gullarda ustunchalar tumshuqchani balandga olib chiqib, changlanishini osonlashtiradi.

Ginetseyning eng asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Urug‘chalar hosil qilish: Ginetseyning asosiy vazifasi urug‘chalarni shakllantirishdir. Urug‘chalar keyinchalik urug‘larga aylanadi.
2. Urug‘lanishni ta’minlash: Chang qabul qiluvchi changni ushlab, chang donalaridagi erkak gametalarni urug‘chaga yetkazadi.
3. Meva shakllantirish: Urug‘don meva shakllanishining asosiy qismidir. Urug‘lanishdan so‘ng urug‘don mevaga aylanadi.
4. O‘simlikning ko‘payishi: Ginetsey orqali o‘simlik generativ ko‘payish jarayonini amalga oshiradi.

Ginetseyning kelib chiqishi. Urug‘chi gulli o‘simliklarda uzoq davom etgan evolyusiya jarayonida mevaklardan hosil bo‘lgan. Klassik morfologiya asoschilaridan Gyote ginetsey kelib chiqishi jihatidan shaklan ozgargan barg, deb ta’riflagan boli, hozirgi botaniklar bu fikrni inkor etadilar. Morfolog-sistematik A.L.Taxtaxadjyan va boshqa olimlar yopiq urugli oimliklarning gulidagi urugchibarglar evolyutsiya jarayonida qadimgi ochiq urug‘li osimliklarning ajdodlari - sagovniklarda vujudga kelgan va ochiq patsimon megosporofilladan bir-biri bilan tutahishi natijasida mevachibarglar rivoj topgan, deydilar. Bu fikrni tasdiqlovchi qator dalillar bor. Chunonchi, qazilma holda topilgan yopiq urugli osimlik Degeneriada huddi shunday mevachibarglarni taraqqiy etganini ko‘rish mumkin. Hozirgi vaqtda ginetseyning tuzilishi, rivojlanishi va uning evolyutsion ahamiyati bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy ishlarda asosan quyidagi yo‘nalishlar o‘rganilmoqda:

1. Genetik mexanizmlar: Ginetseyning rivojlanishini boshqaruvchi genlar va ularning ifodalanish jarayonlari aniqlanmoqda. Bu o‘rganish o‘simliklarni seleksiya qilish va genetik modifikatsiyalash uchun asos yaratadi.
2. Fiziologik xususiyatlar: Urug‘don va urug‘chalar rivojlanishida gormonlarning, ayniqsa, auxin, gibberellin va sitokininlarning roli tadqiq qilinmoqda.
3. Evolyutsion o‘zgarishlar: Ginetseyning turli o‘simlik turlarida qanday shakllanganligi va vaqt o‘tishi bilan qanday moslashuvlarni boshdan kechirganligi o‘rganilmoqda.

4. Amaliy tadqiqotlar: Meva hosildorligini oshirish, changlanish jarayonini yaxshilash va o‘simliklarni genetik modifikatsiyalash uchun ginetseyning tuzilishi va funksiyasi haqidagi ilmiy ma’lumotlar qo‘llanilmoqda.

Xulosa: Ginetsey o‘simliklarda generativ organ sifatida muhim ahamiyatga ega. Uning tuzilishi va funksiyasi urug‘lanish va urug‘ hosil qilish jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ginetseyning tuzilishi o‘simliklarning turli turlarida farq qilishi mumkin, bu esa ularning ekologik moslashuvini ta’minlaydi. Ginetseyning tadqiqi zamonaviy biologiya va qishloq xo‘jaligi sohalari uchun katta ahamiyatga ega. Uning rivojlanishi va funksiyalarini o‘rganish o‘simliklarning genetik xilma-xilligini aniqlash, hosildorlikni oshirish va ekologik sharoitlarga moslashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu sohadagi izlanishlar nafaqat fundamental ilm-fan uchun, balki amaliyot uchun ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.S. Dariyev. Botanika o‘simlilar anatomiyasi va morfologiyasi
2. Karimov, A. A., & Abdurahmonov, I. (2018). O‘simliklar anatomiyasi va morfologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. To‘xtayev, S. (2017). Gulli o‘simliklarning generativ organlari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

**Research Science and
Innovation House**